



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

3 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2022

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент кимё - технология институти

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариши муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариши давлат университети

Махкамова Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Раҳмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмудалиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алнева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Одилов Аббор Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети


Толибоева Нодира Одилжоновна
Тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Ўзбекистон жаҳон
тиллари университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Раҳбархон Муртазаева ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА ЁШЛАРГА ОИД ДАВЛАТ СИЁСАТИ.....	6
2. Дилором Бобожонова ЎЗБЕК ОИЛАЛАРИДА ТИББИЙ МАДАНИЯТНИ ОШИРИШ, СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ.....	17
3. Баҳодир Эшов ҚАДИМГИ ШАҲАРЛАР ШАКЛЛАНИШИНИНГ ТАҲЛИЛЛАРИ.....	26
4. Зумрад Раҳмонкулова МАҲМУД АМИН АФАНДИ “ИСТАНБУЛДАН ЎРТА ОСИЁГА САЁҲАТ”.....	34
5. Манзура Аминова ИБН ХОЛДУН ИЛМИЙ МЕРОСИНING ЗАМОНАВИЙ АҲАМИЯТИ.....	41
6. Тўлқин Ахмедов ТУРКИСТОНДА БИРИНЧИ РУС-ТУЗЕМ МАКТАБИ: МАЪМУРИЙ ЭҲТИЁЖ ЁКИ МАДАНИЙ ЯҚИНЛАШУВ ЗАРУРИЯТИ?.....	48
7. Мансур Бойсариев ОЗАРБАЙЖОН ДИАСПОРАСИ ВАКИЛЛАРИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМ-ФАНИ ТАРАҚҚИЁТИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ.....	56
8. Фируза Жуманиязова ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ХОРАЗМ ХОТИН-ҚИЗЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ ҲАЁТДАГИ ФАОЛЛИГИНИНГ ДАВРИЙ НАШРЛАРДА АКС ЭТТИРИЛИШИ (1941–1945 йиллар).....	64
9. Мухаммаджон Исамиддинов АНТИК ДАВР ЁЗМА МАНБАЛАРИДА САМАРҚАНД ТАРИХИНИНГ ЁРИТИЛИШИ.....	70
10. Баҳыт Кошанов, Хакимбай Отегенов, Гулчехра Ержанова ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ТАРИХШУНОСЛИГИНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ.....	79
11. Shohruhbek Mamadaliyev TURKISTON SHAHARALARIDA OCHLARGA YORDAM KOMISSIYASI FAOLIYATI TARIXIDAN.....	87
12. Gulnora Maxkamova XX ASR SAMARQAND KASHTALARI: XILLARI, USLUBLARI, ORNAMENT REPERTUARI (SAMARQAND DAVLAT MUZEYI NAMUNALARI MISOLIDA).....	93
13. Уктамжон Мансуров VI – XI АСРЛАР СУҒД ЁЗМА ЁДГОРЛИКЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ МАНБА СИФАТИДА ЎРГАНИЛИШИ.....	100
14. Шоназар Матякубов XVI- XVIII- АСРЛАРДА ХИВА ХОНЛИГИ ҲУНАРМАНДЧИЛИГИНИНГ АСОСИЙ СОҲАЛАРИДАН БИРИ-КУЛОЛЧИЛИК ТУРИ ТАВСИФЛАРИ.....	105

15. Отабек Махмудов «МИЛЛИЙ ТАРИХ» ВА «ТАРИХ ТАЪЛИМИ»ДА «ЖАҲОН ТАРИХИ»НИНГ АҲАМИЯТИ (лотин тилли тарихий манбалар ва замонавий ўзбек илмий адабиётининг қиёсий таҳлили медиєвистик талқинда).....	109
16. Sayyora Mirsoatova, Aхrorbek Muxsidinov O‘ZBEKISTONDA MEZOLIT DAVRI YODGORLIKLARINING O‘RGANILISHI HAQIDA.....	122
17. Зухра Ражабова ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ СИЙМОСИННИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ.....	128
18. Мафтуна Рузикулова ФАРҶОНА ВОДИЙСИНИНГ МЕЛИОРАЦИЯ ВА ИРРИГАЦИЯ ИШЛАРИ ТАРИХИДАН (1950 – 1970).....	134
19. Хасанбой Рахматиллаев ҚАДИМГИ ВА ИЛК ЎРТА АСРЛАР ДАВРИ ЭТНИК ЖАРАЁНЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ МУАММОЛАРИ ҲАҚИДА.....	139
20. Lutfiya Salomova AVSTRALIYA MILLIY ARXIVI FAOLIYATI HAQIDA.....	144
21. Наргиза Сейтимбетова ҚОРАҚАЛПОҶИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚОЗОҚ МИЛЛИЙ МАДАНИЙ МАРКАЗИ.....	148
22. Shaxnoza Tursunova O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BENILYUKS DAVLATLARI BILAN XALQARO MUNOSABATLARINI RETROSPEKTIV TAHLILINING AYRIM JIHATLARI.....	156
23. Икромжон Умаров КЎҲИТАНГТОҶ ҚИШЛОҚЛАРИНИНГ ҲУДУД БЎЙЛАБ ЖОЙЛАШУВ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА АҲОЛИНИНГ ЭТНИК ТАРКИБИ.....	161
24. Ма’мура Umarxodjayeva, Zilola Shodmonxo`jayeva, Nodira Xasanova O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYINING NOYOB XAZINASIDAN.....	174
25. Санъат Худайбергенов ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЯНГИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧИДА ХОРАЗМ ВИЛОЯТИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИНИНГ ХОРИЖИЙ ҲАМКОРЛИК МАСАЛАЛАРИ.....	178
26. Ҳабиба Ҳасанова 1917-1924 ЙИЛЛАРДА ТУРКИСТОН МИНТАҚАСИДА БОСМАХОНАЛАРНИНГ ТЕХНИК ҲОЛАТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР.....	186
27. Ра’но Qodirova 1936-1937 YILLARDA O'ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA TARIX FANINING O‘RGANILISHI (M.Asimov hisobot materiallari asosida).....	192


28. Қосим Қосимов ШАРҚИЙ БУХОРОДА ҚИЗИЛ АРМИЯГА ҚАРШИ МИЛЛИЙ ОЗОДЛИК ҲАРАКАТЛАРИ.....	196
29. Ислом Қаршиев МУТАФАККИР СЎФИ ОЛЛОЁР ҚАРАШЛАРИДА ТАСАВВУФИЙ ҒОЯЛАР ТАҲЛИЛИ.....	203
30. Гулжаҳон Шайдуллаева ХАРАППА МАДАНИЯТИ ЁДГОРЛИКЛАРИДАН ТОПИЛГАН ОКС ЦИВИЛИЗАЦИЯСИГА ХОС БЎЛГАН МОДДИЙ МАНБАЛАР ТАҲЛИЛИДА МАДАНИЙ ВА САВДО АЛОҚАЛАРИ.....	209
31. Fotima Shirinova, Zumrad Kosimova XX ASRNING 20-30-YILLARIDA SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN SIYOSATI, UNING MONIYATI VA OQIBATLARI. SIYOSIY QATAG'ONLIK.....	222
32. Юлдаш Юлдашев ХОРАЗМ ВИЛОЯТИ ДАВЛАТ АРХИВИ 555-ФОНДИНИНГ АРХИВ МАНБАШУНОСЛИГИ ТАҲЛИЛИ.....	230
33. Акмал Якубов ХИВА ХОНЛИГИНИНГ ТАШҚИ САВДО МУНОСАБАТЛАРИ (Дашти қипчоқ мисолида).....	237
34. Акмал Якубов ХИВА ХОНЛИГИ ВА ҚОЗОҚ ЖУЗЛАРИ (ўтроқ ва кўчманчилар ўзаро алоқларининг негизлари).....	246
35. Лазизахон Алиджанова ДИНИЙ ТАЪЛИМОТЛАРДА ТИББИЁТГА ОИД ИЖТИМОИЙ ҚОИДАЛАР ТАҲЛИЛИ.....	256
36. Дилрабо Қурбанова ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИК СИЁСАТИ.....	264
37. Камола Саипова УРУШ ДАВРИДАГИ ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ БАҒРИКЕНГЛИК КЎРСАТИШИ.....	274
38. Аҳадулла Раҳматуллаев ТУРКИСТОНДАГИ МАҲАЛЛИЙ ЎЛКАШУНОС ВА КОЛЛЕКЦИОНЕРЛАР ФАОЛИЯТИ.....	280
39. Азамат Ктайбеков ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ЎЗГАРИШЛАР (2000-2016).....	288
40. Гулнора Худойберганава “АСКЕТИЗМ” ТУШУНЧАСИ ВА ДИНЛАРДА АСКЕТИК АМАЛИЁТЛАРГА МУНОСАБАТНИНГ ТАҲЛИЛИ.....	293



Shohruhbek Mamadaliyev,
Namangan davlat universiteti
Tarix kafedrası doktoranti
shohruhbekm92@mail.ru

TURKISTON SHAHARALARIDA OCHLARGA YORDAM KOMISSIYASI FAOLIYATI TARIXIDAN

For citation: Shohruhbek Mamadaliyev, FROM THE HISTORY OF THE ACTIVITY OF THE COMMISSION TO PROVIDE HELP TO THE HUNGRY IN THE CITIES OF TURKISTAN. Look to the past. 2022, Special issue 3, pp.87-92

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7485278>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ahvol Rossiya va uning mustamlaka o'lkalarida, xususan Turkistonda ham muhim ziddiyatli iz qoldirganligi, Turkiston xalqlarining ham Rossiyaning ocharchilik azobini tortayotgan aholisiga ko'rsatgan mehr-muruvvati, o'z rizqu ro'zini, uyini, kerak bo'lsa, kiyim-kechagini ham birgalikda baham ko'rgani, buning natijasida Turkistonga ko'chirib keltirilgan ochlarga yordam ko'rsatish uchun shahar, qishloq va hatto mahallalarda ham tashkil qilingan ochlarga yordam ko'rsatish komissiyalari faoliyati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: «Qo'shchi» ittifoqi, xayriya, og'zaki va yozma targ'ibot, och-qochoqlar, oziq-ovqat, viloyat va uezd, qurultoy, ocharchilik azobi, ochlarga yordam komissiyasi, mahalliy ishlab chiqarish, qishloq va ovul.

Шохрухбек Мамадалиев,
Наманганский государственный университет
докторант кафедры истории
shohruhbekm92@mail.ru

ИЗ ИСТОРИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОМИССИИ ПО ОКАЗАНИЮ ПОМОЩИ ГОЛОДНЫМ В ГОРОДАХ ТУРКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о том, какой заметный противоречивый след оставила та социально-политическая и экономическая ситуация начала XX века в России и в её колониальных странах, в частности в Туркистане. О том, как народ Туркистана приютил население России, которое страдало от голода, о том, как проявлял доброту, делился своим жильем, своим последним хлебом и, если необходимо своей одеждой. Также в данной статье даётся анализ работе комиссий по оказанию помощи голодным, созданных в городах, селах и

даже в махаллях для оказания помощи голодающим, переселенным в Туркистан в результате голода.

Ключевые слова: союз “Кушчи”, благотворительность, устная и письменная агитация, голодные беглецы, продукты питания, область и уезд, муки голодания, комиссия по оказанию помощи голодным, местное производство, кишлак и аул.

Shohrukhbek Mamadaliyev,

Namangan State University

doctoral student of the department of history

shohruhbekm92@mail.ru

FROM THE HISTORY OF THE ACTIVITY OF THE COMMISSION TO PROVIDE HELP TO THE HUNGRY IN THE CITIES OF TURKISTAN

ABSTRACT

This article talks about the noticeable contradictory trace left by that socio-political and economic situation at the beginning of the 20th century in Russia and its colonial countries, in particular in Turkistan. About how the people of Turkistan sheltered the population of Russia, who suffered from hunger, how they showed kindness, shared their housing, their last bread and, if necessary, their clothes. This article also analyzes the work of commissions to assist the hungry, created in cities, villages and even mahallas to assist the starving, resettled in Turkistan as a result of famine.

Index Terms: “Kushchi” union, charity, oral and written agitation, hungry fugitives, food products, region and county, starvation pangs, commission to assist the hungry, local production, kishlak and aul.

1. Dolzarbligi:

Ma'lumki, sovet hokimiyati hukmronligi yillarida Turkistondagi oziq-ovqat siyosati, muammo va yechimlar to'g'risida xolisona fikr yuritish imkoniyyati cheklangan edi. O'lkadagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy holatni, mumkin qadar sovet hokimiyati o'rnatilguncha qadar bo'lgan davrni, juda yomon ahvolda bo'lganligini tasvirlash bilan birga, bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelganidan keyin holat yaxshi tomonga o'zgarganini qayd etilgan. Masalan, Turkiston aholisi oziq-ovqat taqchilligi-ocharchilikni (1917-1919) boshidan o'tkazayotgan bir paytda, Rossiya va uning markaziy guberniyalaridan, Shimoliy Kavkaz hududidan oziq-ovqat, sanoat mahsulotlaridan ko'rsatilgan yordamlarni har tomonlama e'tirof etilgan holda, mazkur ocharchilik sabablarini, yordam berish zaruriyati nimalardan kelib chiqayotganini xolisona talqini mafkuraviy tazyiqlar ostida qolib ketgan. Boz ustiga berilayotgan yordamlar zahirida Rossiya uchun Turkiston paxtasi muhim ahamiyatga molik ekanligi to'g'risida yozish mumkin bo'lmagan. Shuningdek, bolsheviklar rahbariyatini Turkistonda olib borgan oziq-ovqat siyosati natijasida aholi ta'minoti qiyinlashgani, mahalliy millat rahbariyatini Markaz zug'umlariga qarshi borishda ojizligi, o'lkada faoliyat olib borayotganlarning yerli aholi manfaatlarini chetlab o'tishi vaziyatni yanada murakkablashtirgan. Ammo shunday shart-sharoitlarda ham Turkiston aholisining sabr-toqati, Rossiyaning hududlaridagi ocharchilik yillarida ko'rsatgan mehr-muruvvati, o'ziga bola-chaqasiga zarur bo'lgan risqu ro'zi, uy-joyi, kiyim-kechagini bilan och-qochoq, uyushtirilgan holda kelganlar bilan baham ko'rgani to'g'risida yozilmadi. Shunday qiyinchilik o'lkani minglab-minglab ochlar oqimi bosib ketgan paytda Turkistonda olib borilgan oziq-ovqat siyosati, yerli aholini keltirilayotgan ochlar dardi, muammosi yechimida ko'rgan kunlari to'g'risida qayd etilmadi. E'tirof etish kerakki, tarix va tarixiy voqealarga xolisona yondashish imkoniyatini mustaqillik berdi.

Mustaqilligimiz tufayli tarixga har tomonlama xolisona yondashish, tarixiy talqinlarni mafkuraviy tazyiqlarsiz berish imkoniyati vujudga keldi. Mazkur imkoniyatlar tufayli XX asr boshlaridagi tarixiy jarayonlar ham o'z xolisona talqinlariga ega bo'la boshladi. Xususan ushbu maqola orqali Turkiston va Rossiyadagi ijtimoiy-siyosiy ahvol iqtisodiy jarayonlar o'lkah aholisining Volgabo'yi Uraloldi hududlaridagi ocharchilikni bartaraf etishdagi ishtiroki ochib beriladi. Asosiy

e'tiborni Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi qoshida Rossiya ochlariga yordam ko'rsatish markazii komissiyasining tuzilishi. uning viloyat uezd-shahar, volostlardagi tarkibi, keng qamrovli faoliyatiga qaratildi.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqolada Turkiston shaharalarida ochlarga yordam komissiyasi faoliyati tarixi tarixiylik tamoyillari hamda qiyosiy, muammoviy, dinamik tahlil usullaridan foydalanildi. Jumladan, tanlangan mavzuni yoritishda va tahlil qilishda A. Rasulov, Q. Rajabov, A. Isoqboev, U. Mansurov, N. Rejabboev kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlariga va davlat arxivlarda saqlanayotgan hujjatlarga murojaat qilindi.

3. Tadqiqot natijalari:

Turkiston respublikasi bo'yicha Turkiston MIQ qoshidagi OY MK o'z amaliy faoliyatida viloyat, uezd-shahar, qishloq va hatto mahallalarda ham tashkil qilingan ochlarga yordam ko'rsatish komissiyalari faoliyatiga tayanib ish ko'rgan. Joylarda tashkil topgan ochlarga yordam komissiyalari 1921 yil avgust oyi boshlaridanoq aholi o'rtasida Rossiyaning ocharchilik hududlaridagi ocharchilik kulfati darajasi va bunga mahalliy aholi tomonidan ko'mak berish zarurligi og'zaki hamda yozma chaqiriqlar orqali tushuntirib borilgan. Shuningdek, joylardagi OY komissiyalari sharoitdan kelib chiqib, qabulxona, yemakxona, ajratish-dizenfeksiya punktlari tashkil qiladi. Ayni paytda, ochlar o'rtasida madaniy- ma'rifiy tarbiya masalalariga ham e'tibor qaratish ko'zda tutilgan[1, 22].

Ochlarga yordam komissiyalari mavjud muammolar echimida «Qo'shchi» ittifoqini ham hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga chaqirgan. Joylarda tashkil topgan ochlarga yordam komissiyalari zudlik bilan o'z faoliyatlarini boshlab, kelayotgan ochlarni qabul qilish, ularga boshpana oziq-ovqat maxsulotlarini etkazib berish ishlariga kirishdilar. Amalga oshirilayotgan ochlarga yordam chora-tadbirlarida boshboshdoqlik ko'zga tashlanmasligi, tashkiliy ishlar ma'lum bir tartibda, uyushgan bo'lishi uchun va albatta, aholi o'rtasida targ'ibot- tashviqot ishlarini amalga oshirish bo'yicha tegishli rejalar

tuzilgan. Ochlarga yordam ko'rsatish, rejasi quyi tashkilotlardan tortib yuqori tashkilotlarga ma'lum bir tizim, shart-sharoit, aholi tarkibi, joylardagi ijtimoiy- siyosiy, iktisodiy, harbiy-siyosiy, holatlardan kelib chiqqan holda tuzilgan. Masalan, 1921 yil 31 avgustida Samarqand viloyati shaharlarida OY komissiyasi raisi Xismetov tomonidan imzolangan rejada quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq ekanligini ko'zda tutilgan: Bunda asosan tashkiliy masalalarda tayyorgarlik, targ'ibot ishlari bo'yicha tayyorgarlik, amaliy yig'im bo'yicha vazifalar belgilab olingan edi[2, 19].

O'z navbatida Turkiston MIQ qoshidagi OY MK joylarda viloyat, uezd-shahar, tuman, volost miqyosida tegishli tarzda ochlarga yordam komissiyalarini tuzadi. Turkiston OY MK ning nafaqat viloyat, uezd-shahar, volostlarda tegishli OY komissiyalari, balki harbiy qismlarda, xususan harbiy front qoshida ham OY komissiyalari faoliyat yuritgan. Harbiy qo'shinlar huzuridagi OY komissiyasi zimmasiga yana Turkiston OY MK topshirig'i asosida g'allalarni uezd-shahar, viloyatlardagi OY komissiyasi ixtiyoriga yuborish ishlarini amalga oshirish ham yuklatilgan. Masalan, Turkiston OY MK topshirig'iga binoan 1921 yil 13 dekabrda 7 vagon g'allani Chernyaevga yuborish uchun vagonga yuklash harbiy qo'shinlar OY komissiyasi zimmasiga yuklatilgan[3,22-28].

Turkiston MIQ qoshidagi OY MK va uning joylardagi mahalliy komissiyalari aholi zich yashaydigan hududlarda, choyxona. guzar, bozorlarda Volgabo'yi, Uraloldi hududlaridagi ocharchilik natijasida bolalar, ayollar. keksalar juda qiyin ahvolga tushib qolgani, oziq-ovqat etishmasligi tufayli odamlar ildizpoya, daraxt po'stloqlarini, qipiq, kunjara yeyishga majbur bo'layotgani to'g'risida gapirib, mehr-shafqat tuyg'ularini uyg'otishga, xayriya uyushtirish ishlariga bosh-qosh bo'ldi.

Komissiya tomonidan joylarda ana shunday targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish hamda oziq-ovqat, kiyim-kechak xayriyalarini yigish uchun dastlabki kunlardanoq maxsus 700 ga yaqin kishi ajratildi. Ular targ'ibot-tashviqot ishlarini aholi yashaydigan qishloq va shaharlardan tashqari temir yo'l stansiyalarida, alohida stol tashkil qilish va harakatdagi targ'ibot-tashviqot punktlarini ochish bilan ham amalga oshirishdi. Shuningdek, joylarda insoniylik, xayrixohlikka, mehr-

muruvvatga bag'ishlangan mitinglar uyushtirish, varaqalar, chaqiriqlar, plakatlar, ro'znomalar tarqatish ishlari bilan ham shugullandilar[4,2].

Turkiston MIQ qoshidagi OY MK va uning joylardagi komissiyalari olib borgan targibot-tashviqot ishlari natijasini kutishga ko'p vaqt ketmadi. Turkiston aholisi Rossiya hududlaridagi ocharchilikka giriftor bo'lganlarga mumkin qadar yordam berishga xayrixoh bo'ldilar. OYO komissiyasi 1921 yil 31 iyulda Yettisuv viloyatidan 24vagondan iborat dastlabki marshrut poezdini, 1 avgustda yana 25 vagonni jo'natdi. Umuman olganda. 1921 yil avgust oyida Orenburg, Samara, Qozon, Ufa va boshqa ocharchilik guberniyalaridagi ochlik azobini tortayotgan aholiga yordam tariqasida 5 ming pud g'alla yuborilgan[5,253]. 1921 yil 7 avgustdan 1 sentyabrgacha faqatgina Poltorask (hozirgi Ashxabod) shahridan 5400 pud g'alla, 2010 qo'y, 20 mln. rubl pulni ocharchilikka muhtalo bo'lganlarga yordam sifatida yig'ishga erishdilar. Kushkada esa shu munosabat bilan ochlar uchun 1 mln. 281064 rubl. 107 pud g'alla, 24 bosh qo'y yig'ilgan edi[6,51-54].

Turkiston MIQ qoshidagi OY MK o'ziga berilgan katta vakolatdan kelib chiqib, respublikada o'tkazilayotgan har bir yig'ilish, anjuman, qurultoylar o'zlarining kun tartibiga Rossiya ochlariga yordam masalasini qo'yishini va ocharchilik guberniyalaridagi ahvolni muhokamasidan keyin tegishli qarorlar qabul qilish zarurligini talab qilardi.

Turkiston MIQ qoshidagi OY MK faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu komissiya faoliyati joylardagi volost, uezd, shahar, viloyat miqyosidagi OY komissiyalari bilan uzviy aloqada bo'lgan. Joylardagi OY komissiyalari o'z faoliyatlari davomida markaziy komissiya ko'rsatma topshiriqlarini bajarish bilan birga mahalliy shart-sharoitdan kelib chiqib ham Rossiya ochlariga yordam ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishgan. Chunki faqatgina Turkiston MIQ qoshidagi OY MK faoliyatiga tayanib ish ko'rish o'z natijasiga ega bo'la olmasdi. Boshqacharoq ifodalaganda, Turkiston MIQ qoshidagi OY MK zimmasida turgan vazifalar ancha-muncha bo'lib, ularni bajarish uchun viloyatlardagi OY komissiyalari ham tinimsiz ishlashiga to'g'ri kelgan. Shu o'rinda Turkiston MIQ qoshidagi OY MKning Farg'ona viloyatidagi OY komissiyasi faoliyati e'tiborga loyiq. Viloyat OY komissiyasi o'z faoliyatini rasman 1921 yil 26 iyulida Krivoruchkin rahbarligida boshlagan edi. Ushbu komissiya o'zining dastlabki faoliyatidanoq Volgabo'yi, Uraloldi hududlari ochlariga yordam uyushtirish uchun spektakllar qo'yish, mahallama-mahalla, qishloqmaqishloq aylanib yurib xayriya yig'ish, gullar sotish va undan tushgan foydaga oziq-ovqat xarid qilish bilan shug'ullangan.

Fargona viloyat OY komissiyasi tomonidan olib borilgan targ'ibot tashviqot o'z natijasini bergan. Farg'ona viloyatida OY komissiyasi faoliyatiga mahalliy aholi xayrixohlik bilan qaragan.

Turkiston MIQ qoshidagi OY MKning joylardagi ochlarga yordam komissiyalari kundankunga o'z faoliyatlarini jonlantirish, ko'proq tadbirlar o'tkazish bilan band edi. Namangan uezd-shahar OY komissiyasi ham o'zining faoliyatini 1921 yil avgust oyining boshlarida boshlagan. Komissiya a'zolari dastlabki paytlarda ochlarga yordam berish uchun Eski va Yangi shaharlarda spektakllar, konsertlar, sayillar hamda mahallama-mahalla yurib xayriyalar uyushtirish bilan shug'ullanishgan. 1921 yil 18 oktyabrgacha o'tkazilgan «haftalik» tadbirlari natijasida Namangan shahridagi aholidan 10 mln. rubl, 140 pud bug'doy va un, 9 pud asal, 19 pud tuz. 114 bo'lak sovun, 11 ta chopon, choy va boshqa narsalar ochlarga yordam tariqasida yig'ib olingan. 1921 yil 18 oktyabridan keyingi «yordam haftaligi» natijasida 8 mln. rubl, 7 ta to'shak, 11 ta kalish, 2 juft bolalar etigi, 20 pud g'alla, 4 ta oltin uzuk. 3 ta kumush uzuk, bir juft oltin baldoq, 1 ta kumush tuzdon, 1 ta papiros uchun kumush mushtug xayriya tarzda yig'ilgan. Bundan tashqari ochlar hisobiga uyushtirilgan shanbalik natijasida 4 mln. 698 ming rubl yig'ilgan[7, 56].

Ochlarga yordam ko'rsatish bo'yicha Andijon uezd-shahar komissiyasi bergan hisobotga ko'ra, 1921 yil 11 sentyabrdan 31 oktyabrgacha komissiya a'zolari aholi yashayotgan joylarni aylanib yurib, quyidagi ishlarni amalga oshirgan:

Volgabo'yidan kelayotganlarni qabul qilish punkti joriy etilib, och bolalarni joylashtirish uchun 150 o'rinli internat ta'mirlangan;

Andijon shahridagi turli tashkilotlar, korxonalar, aholidan Volgabo'yi ochlari uchun ish haqi va xayriyalar uyushtirilgan. Natijada 8 mln. 526 ming 233 rublni xayriya tariqasida yig'ishtirilgan bo'lib, undan 1 mln. 148115 rublni Qo'rgontepa OY komissiyasi tomonidan berilgan[8, 57].

Marg‘ilon uezd-shahar OY komissiyasi tashkil topganidan 1922 yil boshlariga qadar yuritgan faoliyati davomida hunarmand, ishchi-xodimlardan 31 mln. 145678 rubl Volgabo‘yi ochlari hisobiga xayriya qilingan. Bundan tashqari «yordam haftaligi»da yig‘ilgan buyumlar Farg‘ona viloyat OY komissiyasi ixtiyoriga yuborilgan. Ammo yig‘ilgan buyumlarning ma‘lum bir qismini, o‘z hajmi va holatiga ko‘ra, yuborish imkoniyati yo‘qligi sababli, viloyat OY komissiyasi ijazati bilan sotilgan va bu 1 mln. 780600 rublni tashkil qilgan. Xo‘jand uezdi OE komissiyasi raisi Zokirov Volgabo‘yi, Uraloldi ochlari uchun uezdda 20 mln. rubl va 1200 pud oziq-ovqaz mahsulotlari xayriya tariqasida yig‘ilgani to‘g‘risida hisobot bsrigan[9,55].

Joylardagi OY komissiyalari Volgabo‘yi Uraloldi hududlarida ocharchilikdan azob chekayotganligi bo‘yicha xayriya tadbirlari, «yordam haftalik»lari izsiz ketmagan. Turkiston xalqi ochlar fojeasini yengillashtirishga xayrihohlik bilan qaragan. Masalan, faqatgina 1921 yil 11-19 dekabr kunlari Turkiston MIQ OY MK hisobiga viloyat, uezd-shahar OY komissiyalaridan tushgan xayriya mablag‘ 64 mln. 953 ming 484 rublni tashkil qilgan. 1922 yil yanvar oyida Turkiston MIQ qoshidagi OY MK hisobiga 232 mln. 183 ming 419 rubl xayriya qilingan 1922 yil mart-aprel oylarida Farg‘ona viloyatining hamma uездlarida Volgabo‘yi, Uraloldi hududlari ochlari foydasiga sayil uyushtirilib, faqatgina Skobelev shahrining o‘zida OY komissiyasi hisobiga 200 mln.rubl qo‘shildi[10, 635] .

Turkiston MIQ qoshidagi OY MK tomonidan viloyat va uezd-shaharlarda olib borilgan sa‘y-harakatlar natijasi o‘laroq, joylardan Volgabo‘yi, Uraloldi hududlaridagi ochlarga ko‘rsatilgan yordamlar qamrovi kundan-kunga, oydan-oyga ko‘payib bordi. Ammo amalda Turkiston xalqining o‘zi och holda ochlarga yordam ko‘rsatganlar. Bu jarayon borgan sari kuchayib borgan. Masalan. 1921 yilning sentyabrida, ya‘ni Volgabo‘yida Turkistonga ochlar keltirila boshlangandayoq o‘lkaning «ayrim volostlarida yerli aholining o‘zi ocharchilikka giriftor» edi[11,16] .

Umuman olganda, Turkiston MIQ qoshidagi OY MK a‘zolari Rossiya ochlariga yordam ko‘rsatishda 18-20 soatlab ishlashiga, minglab och-yalong‘ochlar taqdiriga befar bo‘lmaslikka harakat qilganlar. Aynan o‘sha OY komissiyalarining tinim bilmay olib borgan faoliyatlari tufayli Rossiyaning minglab ochlari Turkistonda panoh topishga. oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta‘minlanishga muvaffaq bo‘lganlar. Shuni e‘tirof etish lozimki Turkiston MIQ qoshidagi OY MK o‘zining olib borgan faoliyati davomida zimmasiga yuklatilgan vazifani sharaf bilan bajargan. O‘z navbatida viloyat, uezd-shahar, volostlarda faoliyat yuritgan OY komissiyalari bevosita ochlar yemishi, boshpanasi. kiyim-boshi bilan shugullanib, ochlarning mushkulini yengillashtirish ishlariga hissa qo‘shganlar. Lekin ta‘kidlash joizki, joylardagi OY komissiyalari, markazdagi OY komissiyasi o‘z faoliyatida aholi manfaatlari, xususan uning oziq-ovqat ta‘minoti yo‘lida avval hohshiy va keyinroq hohishiy-majburiy “uslub”larni qo‘llashga majbur bo‘lganlar. Buni ochlikka qarshi kurashdagi noiloljlik hatti-harakatlari desa ham bo‘ladi.

4. Xulosa:

Turkiston MIQ huzuridagi OY MK va uning joylardagi OY komissiyalari faoliyati tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur komissiya tunni-kunga ulab Rossiya hududlaridan evakuatsiya tariqasida keltirilgan, och-qochoq kelganlarni oziq-ovqat, boshpana, kiyim-kechak bilan ta‘minlashda katta tashkilotchilik vazifalarini bajarganlar. Komissiya sa‘yi-harakati bilan yana o‘lkadan Volgabo‘yi, Uraloldi hududlariga oziq-ovqat mahsulotlarini yuborish ham amalga oshirilgan. Bu tashkilotchilikning tag-zamirida Turkiston xalqining insonparvarligi, bagrikengligi, bir burda nonini boshqa millat vakillari bilan baham ko‘rgani yotadi. Zero Rossiya xalqlariga oziq-ovqat yordami ko‘rsatilayotgan paytda Turkiston xalqining o‘zi to‘yib ovqat yemayotgan, hokimiyat uchun kurash avj olib, boshqaruvda boshboshdoqlik hamda bolsheviklar zug‘umi kuchayayotganini hisobga olinsa, o‘zbek xalqining naqadar sabr-toqat, kuchli iroda va insoniylik xislatlarini namoyon qilganini, qiyinchiliklarga matonat bilan chidaganini ko‘rish mumkin.

Iqtiboslar/ Сноски/References:

1. O‘zR MDA, R-39 fond, 2- ro‘yxat, 58-ish, 22-varaq (Central Archive of the Republic of Uzbekistan, fund R.39, list 2, file 58, page 22)

2. O‘zR MDA, R-17 fond, 1- ro‘yxat, 927- ish, 19- varaq(Central Archive of the Republic of Uzbekistan, fund R.17, list 1, file 927, page 19)
3. O‘zR MDA, R-22 fond. 1- ro‘yxat. 8- ish, 28 varaq(Central Archive of the Republic of Uzbekistan, fund R.22, list 1, file 8, page 28)
4. O‘zR PDA. 60- fond, 1- ro‘yxat. 1646- ish. 2-varaq (Governmental President Archive of the Republic of Uzbekistan, fund 60, list 1, file 1646, page 2)
5. Tarix shohidligi va saboqlari: chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida O‘zbekiston milliy boyligining o‘zlashtirilishi. - Toshkent. 2001. 464 b. (Testimony and lessons of history: the assimilation of the national wealth of Uzbekistan during tsarism and Soviet colonialism. - Tashkent. 2001. 464 b)
6. Rasulov A. Ochlarga yordam berish komissiyasi faoliyati // Jamiyat va boshqaruv. - 2003. - №2. -B. 51-54(Rasulov A. Activities of the hungry relief commission / / society and management. - 2003. - №2. -B. 51-54)
7. O‘zR MDA. R-17 fond, 1-ro‘yxat, 927-ish, 56-varaq. (Central Archive of the Republic of Uzbekistan, fund R.17, list 1, file 927, page 56)
8. Rasulov A. Turkiston xalqlarining Rossiyadagi ocharchilikni bartaraf etishdagi roli (1921-1923 yy.) // Ilm sarchashmalari. - Urganch, 2003. - №2. - B. 57-61(Rasulov A. The role of the peoples of Turkestan in eliminating the famine in Russia (1921-1923) // Ilm Sarchashmalari. - Urganch, 2003. - №2. - B. 57-61)
9. O‘zR MDA, R-17 fond. 1- ro‘yxat, 927- ish, 55- varaq(Central Archive of the Republic of Uzbekistan, fund R.17, list 1, file 927, page 55)
10. O‘zR MDA, R-17 fond, 1-ro‘yxat, 311- ish. 635- varaq. (Central Archive of the Republic of Uzbekistan, fund R.17, list 1, file 311, page 635)
11. O‘zR MDA, R-17 fond, 1- ro‘yxat, 725- ish, 16- varaq. (Central Archive of the Republic of Uzbekistan, fund R.17, list 1, file 725, page 16)



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

3 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 3

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000